

**DUNYO TABIIY XARITASINI O'RGANISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH**

*Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li*

*Andijon davlat universiteti*

*Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi*

*+998901403566*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo tabiiy xaritasini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha taklif va mulohazalar bildirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** domino usuli, ranglar jilosi usuli, tahlil va tavsif berish usuli.

**KIRISH**

Xarita – Yerning va boshqa sayyoralar yuzasining kichraytirilib va umumlashtirilib, shartli belgilar bilan tekis yuzaga tushirilgan tasviri. Xaritalarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Geografiya fanini tabiiy xaritalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Voqea va hodisalar hamma xaritalarda ham ma'lum shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Shartli belgilar xaritalarni boshqa geografik ma'lumot manbalaridan, ya'ni aerosurat, komsosurat, jadval va hokazolardan ajratib turadigan muhim xususiyatlardan biridir. Shartli belgilarga qarab, voqea va hodisalarning joylanishini, miqdorini, sifatini bilib olish mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Shartli belgilar bir necha turga bo'linadi.

Masshtabli shartli belgilar yordamida voqea va hodisalarning haqiqiy o'lchamlari aks ettiriladi. Ular yordamida qum cho'llari egallagan maydonni, muz qoplagan yerlar maydonini bilish mumkin.

Masshtabsiz shartli belgilar bilan xaritalarning masshtabida ko'rsatib bo'lmaydigan voqea va hodisalar tasvirlanadi. Masalan, turli xil shakllar, chizmalar, harfli belgilar, aholi yashaydigan joylar, GESlar, foydali qazilma konlari belgilari masshtabsiz bo'ladi.

Chiziqli shartli belgilar bilan daryolar, yo'llar, chegaralar ko'rsatiladi. Tushuntirish belgilari bilan daryo oqimining yo'nalishi, o'rmondagi daraxtlarning turlari ko'rsatiladi. Bulardan tashqari yozuvli, harfli, sonli shartli belgilar ham mavjud.

Atlas – to'la va aniq ma'lumotga ega bo'lgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingan xaritalar to'plamidir. "Atlas" atamasi flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U o'zi tuzgan xaritalar to'plamini (1595-yil) Livanning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Birinchi xaritalar to'plami II asrda Klavdiy Ptolemey tomonidan tuzilgan.

Qavariq Yer yuzasini tekis yuzada tasvirlash uchun xarita andazalaridan foydalaniladi. Xarita andazalari sayyoramizning qavariq yuzasini tekis yuzada tasvirlashning matematik usullaridir.

Xaritalar masshtabiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: yirik masshtabli – 1:10000 dan 1:200000 gacha, o'rta masshtabli – 1:200000 dan 1:1000000 gacha, mayda masshtabli 1:1000000 dan kichik.

Mazmuniga ko'ra xaritalar ikkita yirik guruhga bo'linadi: umumiy geografik xaritalar va mavzuli xaritalar.

Umumiy geografik xaritalarda joy geografik sharoitining asosiy tarkibiy qismlari bir xil aniqlikda tasvirlanadi: relyef, daryo, ko'l, muzliklar, tuproq va o'simlik qoplami, aholi yashaydigan joylar, xo'jalik tarmoqlarining tarkibi, aloqa yo'llari, chegaralar va h.k.

Mavzuli xaritalar, o'z navbatida, yana ikki guruhga – tabiiy va iqtisodiy xaritalarga bo'linadi.

Tabiiy geografik xaritalarga Yer yuzasi va okean tagi relyefi, iqlim, tuproq, o'simlik, hayvonlar, landshaft, tabiatni qo'riqlash, foydali qazilma konlari xaritasi kabilar kiradi. [1]

### NATIJALARI VA MUHOKAMA

Dunyoning tabiiy xaritasini o'rganishda quyidagi interfaol usullardan foydalanishimiz mumkin.

1. **Domino usuli.** Ushbu usulda talabalarga yirik tabiiy geografik obyektlar bo'yicha savollar beriladi. Masalan, tog'larning balandligi bo'yicha


<b>Start</b>	Everest
8848 m	Trichmir
7690 m	Ismoil Somoniy
7495 m	G'alaba
7439 m	<b>Finish</b>

Okeanlarning chuqurligi bo'yicha

<b>Start</b>	Tinch okeani
11022 m	Atlantika okeani
8742 m	Hind okeani
7729 m	Shimoliy muz okeani
5527 m	<b>Finish</b>

### 2.Ranglar jilosi usuli.

Ushbu metodda tabiiy xaritadan dastlab materiklar kesimida va okeanlar kesimida alohida qaysi ranglar ko'p egallagani va qaysi ranglar ozroq egallagani haqida so'raladi. Oxirida barcha bilan birgalikda buning sababi tahlil qilinadi.



### **3. Tahlil va tavsif berish usuli**

Ushbu usulda dunyoning tabiiy xaritasiga tavis beriladi.

Masalan, “6-sinf o’quv atlasida berilgan dunyoning tabiiy xaritasi 1:800000000 masshtabda ya’ni 1 smda 800 km qilib berilgan. Xaritadan o’rganib shuni aytish mumkinki, yer shari – geografik qobiq – quruqlik(29.2 foiz) va suvlik muhiti(70.8 foiz)ga bo’linadi. Quruqlik muhitining katta qismi materiklarga to’g’ri keladi. Quruqlik muhitini 100 foiz deb olsak, shundan 36.5 % - Yevrosiyo, 20.3 foizi – Afrika, 16.3 foizi – Shimoliy Amerika, 12.0 foizi – janubiy Amerika, 8.9 foizi – Antarktida, 6 foizi – Avstraliya materiklariga to’g’ri keladi. Dunyo okeanini ham egallagan maydoniga ko’ra taqsimlasak, 49.8 foiz – Tinch okeaniga, 25.8 foiz – Atlantika okeaniga, 20.8 foiz – Hind okeaniga, 3.6 foizi – Shimoliy muz okeaniga to’g’ri keladi...”

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyo tabiiy xaritasini o’rganishda domino usuli, ranglar jilosi usuli, tahlil va tavsif berish kabi usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Zero, geografiyaning tili – xaritadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. P.G’ulomov, H.Vahobov – 7-sinf O’rta Osiyo va O’zbekiston tabiiy geografiyasi.Toshkent-2017
2. 6-sinf o’quv atlas. (2012-yil holati bilan)
3. Internet materiallari